

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Investitsiyalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari

Xujakulova Nigora Rustamovna, Qodirova Mohinur Bahodir qizi

Пути повышения финансово-экономической эффективности инвестиций

Хужакулова Нигора Рустамовна, Кадирова Мохинур Баходир кизи

Ways to increase the financial and economic efficiency of investments

Khujakulova Nigora Rustamovna, Kodirova Mokhinur Bakhodir kizi

Received: May 15, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Ushbu maqolada investitsiyalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi, investitsiyalardan samarali foydalanish, investitsiyalardan olinadigan daromad va ularning iqtisodiyotga ijobiy ta'siri haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, investitsiyalar va investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar tahlil qilingan hamda ularning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.
- **Kalit so'zlar.** investitsiya, moliyaviy-iqtisodiy samaradorlik, baholash, daromad, texnologiya, modernizatsiya, raqobat, iqtisodiy o'sish, kapital.
- **Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы финансово-экономической эффективности инвестиций, эффективного использования инвестиций, окупаемости инвестиций и их положительного влияния на экономику. Также были проанализированы проблемы и недостатки в повышении экономической эффективности инвестиций и инвестиционной деятельности, а также даны предложения и рекомендации по повышению их финансово-экономической эффективности.
- **Ключевые слова.** инвестиции, финансово-экономическая эффективность, оценка, доход, технологии, модернизация, конкуренция, экономический рост, капитал.
- **Abstract.** This article discusses the financial and economic efficiency of investments, the effective use of investments, income from investments and their positive impact on the economy. Also, the problems and shortcomings in increasing the economic efficiency of investments and investment activities are analyzed, and proposals and recommendations are given to increase their financial and economic efficiency.
- **Keywords:** investment, financial and economic efficiency, assessment, income, technology, modernization, competition, economic growth, capital.

KIRISH

Investitsiyalar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda nafaqat hozirgi ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, balki kelajakdagi ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratishda ham markaziy rol o'ynaydi. Shu sababli, investitsiyalarni qisqa muddatli xarajat sifatida emas, balki iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli infratuzilmasi va intellektual bazasini shakllantiruvchi strategik sarmoya deb baholash lozim [1]. Bu nuqtai nazardan qaralganda, investitsiyalarni jamiyatning ijtimoiy infratuzilmasiga yo'naltirish ham iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash uchun muhim. Aynan shu yondoshuv asosida mamlakatlar investitsiya siyosatini shakllantiradi va amaliyotga tatbiq qiladi.

Ular yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjud texnologiyalarni modernizatsiyalash hamda iqtisodiyotni diversifikatsiyalashga xizmat qiladi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiyalar moliyaviy resurslarni uzoq muddatli rivojlantirishga yo'naltirish orqali barqarorlikni ta'minlaydi. Zamonaviy iqtisodiyotda investitsiyalarning samarali jalb qilinishi raqobatbardoshlikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda milliy daromadni ko'paytirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiyalarni jalb etish va ularni boshqarishning nazariy asoslari, milliy xususiyatlar va uni tashkil etish va moliyalashtirish amaliyoti haqida mamlakatimiz iqtisodchi olimlari ham bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan.

Sh.A.Qosimov o'zining "Monetar siyosat va investitsiyalar" nomli monografiyasida monetar siyosatning iqtisodiy o'sishga ta'siri, xususan, investitsiyalarning rivojlanishiga ta'sirini tahlil qiladi. Asarda makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha strategiyalar keltirilgan [2].

Yana bir iqtisodchi olimlarimizdan Ulfat Akhmedova investitsiya faoliyatini rivojlantirishga oid strategiyalarni ishlab chiqishda nazariy va amaliy yondoshuvlarni birlashtiradi. U o'z tadqiqotlarida iqtisodiyotni rivojlantirishda samarali investitsiya siyosatlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqliklarni tahlil qilgan [3]. "Olimlarning fikriga ko'ra, XXI asrda turli mamlakatlarning strategik jihatdan ahamiyatli bo'lgan muammolarini hal qilishda muhim rol bilimlarga asoslangan iqtisodiyotga yoki innovatsion iqtisodiyotga tayanadi [4]. So'nggi 15 yil ichida AQSH va G'arbiy Evropada innovatsiyalar sohasida ishlayotganlar soni ikki martaga, Janubiy-SHarqiy Osiyoda esa 4 baravar ko'paydi. Yevropa Ittifoqida innovatsion faol sanoat korxonalarining ulushi 56 foizdan ko'proqni

tashkil etdi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida yalpi ichki mahsulotning 75 foizi aynan innovatsiyalar hisobiga to'g'ri kelmoqda [5]."

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada investitsiyalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi o'rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida fanning dialektika, iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatish, induksiya, deduksiya, mantiqiy va abstrakt fikrlash hamda istiqbolli bashoratlash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiyalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi bu investitsiyalangan mablag'larning iqtisodiy o'sishga, ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga va ijtimoiy-iqtisodiy foydaning ortishiga qanchalik samarali ta'sir qilayotganligini baholovchi muhim ko'rsatkichdir. Samaradorlik tushunchasi iqtisodiyotda o'rinli va foydali resurslardan foydalanishni anglatadi, ya'ni kam xarajat bilan yuqori natijaga erishishdir. Shu sababli, investitsiyalar samaradorligi o'lchanmasi investitsion loyihalarning qanchalik foydali ekanligini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, investitsiyalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi investitsiyalardan olinadigan daromad va ularning iqtisodiyotga ijobiy ta'sirini o'lchovchi ko'rsatkichlar majmui ham hisoblanib, investitsion faoliyatning samaradorligini baholashda asosiy mezon hisoblanadi. Investitsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi, shu bois ularning samaradorligini to'g'ri aniqlash iqtisodiy siyosat va hududiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega [6]. Moliyaviy samaradorlik tushunchasi investitsion loyihaning pul oqimlari asosida aniqlanadi va quyidagi indikatorlar orqali o'lchanadi:

- ichki daromadlilik darajasi (Internal Rate of Return - IRR) investitsiyalarning qaytish foizini, ya'ni loyihadan olinadigan yillik rentabellik darajasini ko'rsatadi;
- sof hozirgi qiymat (Net Present Value - NPV) — kelajakdagi daromadlarning hozirgi qiymatga keltirilgan yig'indisini, ya'ni investitsiya loyihasining umumiy foydasini ifodalaydi;
- qaytish muddati (Payback Period) — investitsiyalangan mablag'larning qoplangan vaqtini bildiradi, bu ko'rsatkich xavfni baholashda qo'llaniladi [7].

Iqtisodiy samaradorlik esa moliyaviy ko'rsatkichlardan tashqari, iqtisodiyotning barcha sohalariga investitsiya orqali

1-jadval.

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi (foizda) [3]

ta'sirini o'z ichiga oladi. Bu yondashuvda investitsiyalar mahsulot hajmini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, texnologik jarayonlarni yanada takomillashtirish va resurslardan samarali va oqilona foydalanish kabi ko'rsatkichlarga taalluqlidir.

Investitsiyalarning samaradorligini baholashda, shuningdek, risklarni hisobga olish lozim. Har qanday investitsiya loyihasida ma'lum darajada noaniqlik va xavf mavjud bo'lib, iqtisodiy va siyosiy sharoitlarning o'zgarib turishi, bozor narxlarining tebranma holati va boshqa omillar loyihaning kutilgan natijalariga ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud. Shu bois, investitsion tahlil jarayonida risklarni kamaytirish va boshqarish mexanizmlari ishlab chiqilishi muhim hisoblanadi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida investitsiyalarning ijtimoiy va ekologik ta'siri ham samaradorlikka ta'sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Xalqaro moliya institutlari tomonidan ilgari surilgan ESG (Environmental, Social, and Governance) mezonlari investitsiya loyihalarining nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatdan ham foydaliligi baholashga qaratilgan [8].

Moliyaviy-iqtisodiy samaradorlikni baholash jarayonida investitsiya loyihalarining ijtimoiy foydasi ham ko'zdan kechiriladi. Hududda yangi ish o'rinlari yaratilishi, aholi daromadlarining oshishi va infratuzilma rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, investitsiya jarayonida aholi ehtiyojlari, ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlar sohalariga yo'naltirilgan loyihalarining samaradorligi uzoq muddatda hududning umumiy farovonligini oshiradi.

Investitsiyalarning samaradorligini oshirish uchun viloyatda boshqaruv tizimlarini takomillashtirish, loyihalarining monitoring va baholash mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar va ma'lumotlar tahlili vositalari investitsiya jarayonini nazorat qilish va muammolarni erta aniqlash imkoniyatini beradi.

Investitsiyalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi iqtisodiyotning uzoq muddatli o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib, uning baholanishi ko'plab nazariy va amaliy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Moliyaviy nuqtai nazardan qaralganda, investitsiyalar - bu pul mablag'larini ishlab chiqarishga jalb qilish jarayoni bo'lib, ularning asosiy maqsadi yuqori daromad olish va kiritilgan sarmoyaning o'zini oqlashidir. Biroq, iqtisodiy samaradorlik tushunchasi ko'ringanidan farqli darajada kengroq qamrovga ega bo'lib, u nafaqat investitsiya loyihalarining moliyaviy rentabelligini, balki ularning makroiqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini ham o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy samaradorlikka kelganda, u investitsiyalarning butun iqtisodiyotga ta'sirini o'lchash maqsadida qo'llaniladi. Shu bilan birga, iqtisodiy samaradorlik investitsiya loyihalarining ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, yangi

texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu ko'rsatkichlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalarning samaradorligini oshirishda risklarni boshqarish va monitoring tizimlarining roli beqiyosdir. Shu o'rinda, risklar qatoriga siyosiy barqarorlik, bozordagi o'zgarishlar, texnologik yangiliklar va moliyaviy omillar kiradi. Bugungi zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda investitsiyalarni boshqarishda aniq ma'lumotlar tahlili va raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni sezilarli darajada oshirishga imkon beradi.

Investitsiyalarning samaradorligini oshirish uchun avvalo ularni rejalashtirish va boshqarish jarayonlarini takomillashtirish zarur. Samarali investitsiya siyosati quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- investitsiya loyihalarining to'liq va aniq baholanishi. Investitsiya loyihalarining iqtisodiy va moliyaviy tahlillari, shu jumladan, NPV, IRR kabi ko'rsatkichlar asosida aniq baholanishi, shuningdek, risklarni kompleks o'rganib chiqish investitsiyalarning yuksak muvaffaqiyatini ta'minlaydi;
- xorijiy tajriba va innovatsiyalarni joriy etish. Investitsiya samaradorligini oshirish uchun xorijiy davlatlarning ilg'or texnologiyalari va boshqaruv usullarini o'zlashtirish muhimdir;
- hududiy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish. Investitsiya loyihalarining viloyatning tabiiy resurslari, infratuzilmasi va aholining ijtimoiy ehtiyojlariga mos kelishi investitsiyalarning samaradorligini yanada oshiradi;
- davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish. Public-Private Partnership (PPP) shaklida investitsiyalarning jalb etilishi, davlat tomonidan soliq imtiyozlari joriy etilishi va subsidiya mexanizmlarining yaratilishi investitsiya faoliyatini rag'batlantiradi;
- barqaror rivojlanishga e'tibor qaratish. ESG mezonlari asosida investitsiyalarni boshqarish nafaqat moliyaviy foydani, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlaydi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xujakulova Nigora Rustamovna - Qarshi davlat texnika universiteti, Innovatsion iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, / Хужакулова Нигора Рустамовна - доцент кафедры инновационной экономики Каршинского государственного технического университета / Khujakulova Nigora Rustamovna - Associate Professor of the Department of Innovative

Economics, Karshi State Technical University

► nigorakhujakulova86@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0001-2936-1972>

2. **Qodirova Mohinur Bahodir qizi – Qarshi davlat texnika universiteti 1-bosqich magistranti / Кади́рова Мохину́р Баходир кизи – студентка 1 курса магистратуры Каршинского государственного технического университета / Kodirova Mokhinur Bakhodir kizi – 1st year master's student, Karshi State Technical University**

► mohinurbahodirovna9@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0005-7262-233X>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Romer, P.M. (1990). Endogenous Technological Change. *Journal of Political Economy*, 98(5), S71-S102.
- [2]. Qosimov Sh. A. "Monetar siyosat va investitsiyalar" nomli monografiya (2017) <http://kitob.sies.uz>
- [3]. Akhmedova Ulfat "Investitsiya faoliyatini rivojlantirish strategiyalari" (2018) library.ziyonet.uz
- [4]. <https://finance.uz/index.php/ru/fuz-menu-economy-ru/2851-sergej-voronin-stimulirovanie-innovatsionnogo-razvitiya-vrespublike-uzbekistan>
- [5]. http://www.innovation.uz/docs/FORMING_NIS.pdf
- [6]. Barro, R.J., & Sala-i-Martin, X. (2004). *Economic Growth*. MIT Press.
- [7]. Brealey, R.A., Myers, S.C., & Allen, F. (2016). *Principles of Corporate Finance*. McGraw-Hill Education.
- [8]. UNEP FI (2021). *Environmental, Social, and Governance (ESG) Investing*. United Nations Environment Programme Finance Initiative.

Ekonometrika va
statistika

Эконометрика и
статистика

Econometrics and
statistics